

YANGI O‘ZBEKISTONDA INSON HAQ-HUQUQLARI VA ERKINLIKLARI KAFOLATINING YARATILISHI

Namangan davlat pedagogika instituti

Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrası

*katta o‘qituvchisi **B.Tillayev***

Namangan davlat pedagogika instituti

Texnologik ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Xoldarova Gulnoza Shokirjon qizi

Yangi O‘zbekiston davrida inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash, ularni huquqiy kafolatlar bilan mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Mustaqillik yillarida mamlakatda inson huquqlari bo‘yicha xalqaro hujjatlar ratifikatsiya qilinib, ularning ijrosini ta’minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ayniqsa, so‘nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar jarayonida fuqarolarning erkin va munosib hayot kechirishi uchun zarur huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlar yaratilmoqda. “Yangi O‘zbekiston – inson qadri ustuvor bo‘lgan jamiyat” degan tamoyil asosida mamlakatda demokratik islohotlar izchil davom ettirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson huquqlari va erkinliklarini oliy qadriyat deb e’tirof etadi. 2023-yil aprel oyida umumxalq referendumini orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson sha’ni, qadr-qimmat, erkinliklari va huquqlarini himoya qilish bo‘yicha yanada aniq va zamonaviy me’yorlar belgilandi. Yangi Konstitutsiyaga binoan, inson huquqlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladigan qonuniy norma sifatida e’tirof etildi va davlat bu huquqlarni himoya qilish majburiyatini oldi. Jumladan, shaxsiy daxlsizlik, fikr va so‘z erkinligi, diniy e’tiqod erkinligi, ommaviy axborot vositalari mustaqilligi kabi masalalar konstitutsiyaviy kafolat ostiga olindi.

Yangi O‘zbekistonning inson huquqlari sohasidagi siyosati xalqaro miqyosda ham e’tirof etilmoqda. O‘zbekiston BMT, YXHT, Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudi, UNICEF, UNDP, va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirdi. Inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha milliy institutlar – O‘zbekiston Respublikasi Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman), Bola huquqlari bo‘yicha vakil, sud-huquq tizimidagi islohotlar orqali fuqarolarning huquqiy madaniyati va huquqiy himoyasi darajasi oshirildi. Ombudsman instituti faoliyati kengaytirilib, u jamoatchilik nazorati vositasiga aylantirildi. Mamlakatda Inson huquqlari bo‘yicha milliy strategiyalar ishlab chiqildi va bu boradagi qonunchilik doimiy yangilanib bormoqda.

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, NNTlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash ham inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda hozirda mingdan ortiq nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat yuritmoqda va ular turli ijtimoiy muammolarni hal etishda davlat bilan hamkorlik qilmoqda. Hukumat tomonidan "Ochiq budjet", "Ochiq sud majlislari", "E-ombudsman", "Mening fikrim" kabi onlayn platformalar orqali fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirok etish mexanizmlari kengaytirildi. Bu tashabbuslar orqali aholi o'z taklif va shikoyatlarini bevosita hukumat organlariga yetkazish imkoniga ega bo'ldi.

Ta'lim va sog'liqni saqlash tizimida ham inson huquqlarini ta'minlash bo'yicha muhim ishlar olib borildi. Jumladan, majburiy mehnat, bolalar mehnatiga barham berish bo'yicha xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda monitoring va profilaktika ishlari kuchaytirildi. 2020-yilda O'zbekiston "Xalqaro mehnat tashkiloti" (ILO) tomonidan majburiy mehnatga qarshi kurash bo'yicha yutuqlari tufayli e'tirof etildi. Yangi qonunchilik asosida mehnat munosabatlari liberallashtirilib, xodimlarning mehnat huquqlari kafolatlandi. Shuningdek, ayollar va bolalar huquqlarini himoya qilish, ularni zo'ravonlikdan asrash borasida muhim qonunlar qabul qilindi. Ayollarni ta'qib va tazyiqlardan himoya qilish bo'yicha "Himoya orderi" amaliyotga joriy etildi. Gender tengligi masalasi davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylandi.

Sud-huquq islohotlari doirasida odil sudlov kafolatlari kuchaytirildi. Fuqarolar sudlarga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilish, o'z huquqlarini himoya qilish, adolatli sud qarorlarini olish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Advokatlar institutining mustahkamlanishi, sud jarayonlarining ochiqligi, videoyozuv vositalaridan foydalanish tartibi fuqarolarning huquqiy ishonchini oshirdi. Sudyalar mustaqilligi, adolatli qarorlar qabul qilish mas'uliyati kuchaytirildi. Shuningdek, jazoni ijro etish muassasalarida sharoitlar yaxshilanib, mahkumlarning insoniy qadr-qimmatini hurmat qilinishi ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Qiynoqlarning oldini olish va ularni butkul yo'q qilish borasida "Qiynoqlarga qarshi kurashish milliy mexanizmi" amaliyotga joriy qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017-yildan boshlab e'lon qilingan "Inson manfaatlarini yo'lida" shiori ostida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ko'plab muhim yo'nalishlarda ijobiy siljishlar yuz berdi. Jumladan, har bir insonning yashash huquqi, shaxsiy erkinligi, harakatlanish huquqi, erkin fikr bildirish va e'tiqod erkinligi borasidagi huquqlari mustahkamlandi. Jinoiy kodeks va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda inson sha'ni va qadr-qimmatini poymol etishga yo'l qo'yimaslik bo'yicha yangi normalar kiritildi. Jarimalar, hibsga olish, qamoq jazolari qo'llanishi faqat qonun asosida, sud qarori bilan amalga oshirilishi qat'iy belgilandi. Shuningdek, fuqarolarning internet orqali huquqlarini himoya qilish, axborotdan erkin foydalanish huquqlari kengaytirildi.

2021–2025-yillarga mo'ljallangan Inson huquqlari bo'yicha milliy strategiyada O'zbekiston oldiga bir qator muhim vazifalar qo'ydi. Bular orasida nogironligi bo'lgan

shaxslarning huquqlarini himoya qilish, ekologik huquqlarni mustahkamlash, fuqarolik jamiyatining faolligini oshirish, gender tengligini ta'minlash, migratsiya sohasida inson huquqlarini himoya qilish asosiy yo'nalishlar sifatida belgilandi. Strategiya asosida xalqaro ekspertlar va tashkilotlar bilan hamkorlikda monitoring tizimlari yaratildi. Har yili inson huquqlari bo'yicha Ombudsman hisobotlarini parlamentda muhokama qilish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Axborot erkinligi va so'z erkinligi sohasida ham tub o'zgarishlar yuz berdi. Bugungi kunda O'zbekistonda yuzlab xususiy ommaviy axborot vositalari, mustaqil blogerlar faoliyat yuritmoqda. Ularning jamiyatdagi dolzarb muammolarni ko'tarishi, tanqidiy fikr bildirishi hukumat tomonidan ham ijobiy baholanmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda erkin fikr bildirish imkoniyatlari oshdi. Bu esa fuqarolarning faolligini oshirishga, hukumat organlari ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Xalqaro maydonda ham O'zbekiston inson huquqlarini ta'minlash borasidagi yutuqlari uchun e'tirof etilmoqda. BMT Inson huquqlari kengashi O'zbekistonni a'zo etib sayladi, bu esa mamlakatning ushbu sohadagi sa'y-harakatlariga berilgan yuksak baho bo'ldi. Shuningdek, O'zbekiston bir nechta xalqaro inson huquqlari bo'yicha konvensiyalarga a'zo bo'lib, ularni ratifikatsiya qilgan holda milliy qonunchilikka tatbiq qildi. Bu bilan mamlakat o'z zimmasiga olgan xalqaro majburiyatlarni amalda ham bajarishga intilayotganini ko'rsatdi.

Shu tarzda, Yangi O'zbekiston sharoitida inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash masalasi davlat siyosatining markazida turibdi. Har bir fuqaroning sha'ni va qadri ustuvor bo'lgan jamiyatni barpo etish yo'lida tizimli islohotlar olib borilmoqda. Huquqiy kafolatlar bilan mustahkamlangan bu islohotlar fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini oshirmoqda, jamiyatning ochiqligi va adolatga asoslangan boshqaruv tizimini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yangi O'zbekiston taraqqiyotining negizida inson qadri, sha'ni va huquqlarini oliy darajada hurmat qilish tamoyili turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlarini belgilash to'g'risida"gi Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06/21/6261/0667-son. 14.07.2021.
2. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
3. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent: O'zbekiston, 2017. 48 b.